



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI O'RGATISHDA AUDIO-VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Matqosimova Mohira Erkinbek qizi

ADCHTI, Nemis tili nazariyasi va amaliyoti Kafedrasi o'qituvchisi

Mohiragina@gmail.com

Fozilova Muxlisa G'anisher qizi

Andijon davlat che tillilari instituti 2-bosqich talabasi

dcvddcvv3344@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'limda bilim olayotgan bolalarga chet tilini o'rgatishda turli xil o'yinlar hamda video-audio materiallardan foydalanish qay darajada samarali bo'lishi haqida fikr yuritiladi. Ushbu maqolani o'qish orqali siz psixolog, pedagog hamda bir qancha tadqiqotchilarning bu boradagi fikr-mulohazalari va tajribalaridan bahramand bo'lasiz.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, chet tilini o'qitish, audio-video materiallar, motivatsiya, sahna ko'rinishi, animatsion filmlar, dramatisatsiyalar

Abstract: This article discusses the effectiveness of using various games and video-audio materials in teaching a foreign language to children in preschool and primary education. By reading this article, you will benefit from the opinions and experiences of psychologists, educators, and several researchers on this topic.

Key words: education system, preschool education, primary education, foreign language teaching, audio-video materials, motivation, stage performance, animated films, dramatizations



Аннотация: В статье рассматривается эффективность использования различных игр и видео-аудиоматериалов при обучении иностранному языку детей дошкольного и начального образования. Прочитав эту статью, вы извлечете пользу из мнений и опыта психологов, педагогов и ряда исследователей по этой теме.

Ключевые слова: система образования, дошкольное образование, начальное образование, обучение иностранным языкам, аудио- и видеоматериалы, мотивация, сценическое исполнение, анимационные фильмы, инсценировки

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan buyon barcha sohalarda islohotlar o'tkazildi. Bugungi kunga kelib ta'lim sohasi ravnaq topgan, barqaror sohalardan biriga aylandi. Bunda o'qituvchilarga berilayotgan e'tibor hamda o'quvchi-talabalarga berilayotgan imtiyozlarning o'rni beqiyos. Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'lim tizimi haqida fikr yuritir ekan, bu tizimda maktabgacha va maktab ta'limining roli muhimligini ta'kidlab o'tdilar. Muhtaram Prezidentimizning "Vatan — maktab ostonasidan boshlanadi",— degan so'zlari quvonarli, albatta.

Maktabgacha ta'lim - yoshlarimiz ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha va boshlang'ich bilim bolalar uchun muhim bo'lganidek, ularga to'g'ri va keng miqyosdagi tanlov asosida ta'lim berish ham zarurdir.

Maktabgacha yosh davri bolaning nutq va til o'zlashtirish qobiliyati eng faol rivojlanadigan bosqich hisoblanadi. Shu sababli, bu davrda chet tilini o'rgatishda to'g'ri metodlarni tanlash juda muhim. Audio va video materiallardan foydalanish esa bolalarning tilni eshitish, ko'rish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.



Maktabgacha tarbiya dasturi bolalarga o'sishi va o'rganishiga yordam berishi kerak. Bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani o'ylab o'rganishmaydi. Bu holatda ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar chet tilini hikoyalarni tinglash, multfilm ko'rish yoki o'yinlar o'ynash orqali osonroq o'rganadilar. Agarda xohlasalar, o'zlari ishtirokidagi o'yinlar orqali o'rgangan malumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bog'liq bo'lishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bolishi kerak. O'quvchilar dars davomida o'zlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va dars jarayonida xuddi asar qahramonidek o'zlarini tutishadi, harakat qilishadi. Masalan, boshlangich sinflarda, odatda, chet tillarni o'rganish hayotiy situatsiya va o'yinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda o'rganilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli boladi.

Chet tillarini o'qitishda, asosan, ikki xil materiallarga yondashiladi:

1. Audio materiallar (qo'shiqlar, ertaklar, dialoglar, hikoyalar) yordamida bolalar tabiiy ravishda chet tilidagi talaffuz, intonatsiya va leksikani o'zlashtiradilar. Musiqa va ritm bilan birga eshitilgan matnlar bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi, ular yangi so'zlarni tezroq yodlaydilar.

2. Video materiallar (multfilmlar, qisqa hikoyalar, animatsion kliplar) esa til o'rganishni yanada jonlantiradi. Tasvir va harakatlar orqali bolalar til bilan birga madaniyat, mimika va tana harakatlari haqida ham ma'lumot olishadi. Video materiallar kontekstda tilni tushunishni osonlashtiradi, bu esa bolalarda chet tilini faol va tabiiy ravishda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

Audio-video materiallardan foydalanishning asosiy afzalliklari:



Motivatsiya: Rang-barang va qiziqarli materiallar bolalarda o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Kontekstual o'rganish: So'z va ifodalarni kontekstda tushunish orqali mustahkam bilim hosil bo'ladi.

To'g'ri talaffuz va eshitish ko'nikmasi: Asl nutq namunalarini eshitish bolalarning fonetik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'zaro aloqa: Video materiallar asosida interaktiv mashg'ulotlar tashkil etib, bolalarni faol suhbatga jalb qilish mumkin.

Shuningdek, amaliyotda, qisqa multfilmlarni ko'rgandan so'ng bolalar bilan savol-javob o'tkazish, hikoyani qayta hikoya qildirish yoki eshitilgan qo'shiq asosida kichik dramatizatsiyalar sahnalashtirish yaxshi natija beradi. Shuning uchun audio va video materiallardan foydalanish faqat eshitish va ko'rish bilan cheklanmasdan, bolalarning faol ishtiroki bilan integratsiyalashgan bo'lishi zarur.

Multimodal yondashuv: Bu usulda bolalar bir vaqtning o'zida eshitadi, ko'radi, gapiradi va harakat qiladi. Masalan, qo'shiq eshitib, undagi harakatlarni bajarish (masalan, "If You're Happy and You Know It" qo'shig'i) so'z ma'nosini tezroq anglash va mustahkamlashga yordam beradi.

Audiovizual materialdan keyingi faoliyat:

Rolli o'yinlar: multfilm yoki video dialog asosida rollarni taqsimlab, so'zlashuvni mashq qilish.

Rasmlar bo'yicha hikoya tuzish: video asosida rasm chizish va u haqida gapirish.



Harakatli o'yinlar: eshitilgan so'zlarga qarab harakat qilish (masalan, "jump", "sit down", "clap").

Mustahkamlovchi topshiriqlar: O'yinchoqlar orqali so'zlarni takrorlash, kartochkalar bilan juftlik topish (so'z – rasm) yoki mini-viktorinalar va savol-javoblar.

Shuningdek, Eshitish – audio-video orqali, so'zlash – harakatli yoki rolli o'yinlar orqali, so'z boyligi – kontekstda eshitilgan yangi so'zlar orqali, talaffuz – audio materialga ergashish orqali ko'nikmalarni uyg'un rivojlantirish.

Bu integratsiya usuli bolalarni charchatmaydi, aksincha ularni til o'rganishga qiziqtiradi va faol ishtirokga undaydi. Ayniqsa, Bolalar bu jarayonda o'zlarini erkin va quvnoq his qiladilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, audio va video materiallardan foydalanish davr talabi bo'lish bilan birgalikda, ular o'zining rangli tasviri, e'tiborni tortuvchi musiqa va ohangi bilan bolarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday materiallardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning chet tilini o'zlashtirish jarayonini samarali va tabiiy qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press.— Maktabgacha yoshdagi bolalarning til o'rganish xususiyatlari haqida.

2. Brewster, J., Ellis, G., & Girard, D. (2002). The Primary English Teacher's Guide. Penguin English.— Interaktiv metodlar, jumladan audio-video vositalardan foydalanish haqida.



3. Хасанов, Х.Х. (2019). Chet tillarini o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.— O'zbek tilida chet tilini o'rgatishning nazariy asoslari va innovatsion texnologiyalar.

4. Karimova, D.N. (2020). Boshlang'ich ta'limda xorijiy tilni o'qitishning zamonaviy usullari. Toshkent: Fan va texnologiya.— Maktabgacha va boshlang'ich yoshdagi bolalar uchun media vositalardan foydalanish yondashuvlari.

5. Xasanboyeva, M. (2022). Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. Andijon: Nasaf nashriyoti.— Maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalarining, jumladan audio-video vositalarning roli.

6.<https://phystech.jdpu.uz/index.php/presedu/article/download/7316/5024/17682>

7.<https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/download/35498/22682/36681>